



PUBLIC HEALTH SYSTEM IN TURKESTAN REGION

Oydinoy Ochilova

PhD, Associate Professor

Asian University of Technology

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Turkestan, population health, health system, medical infrastructure, health services, quality of treatment, health strategies.

Received: 15.12.24

Accepted: 17.12.24

Published: 19.12.24

Abstract: This scientific article provides analytical information on the current state of the public health system in the Turkestan region and its development prospects. The article also examines key factors such as access to health services for the local population, medical infrastructure, and the quality of treatment.

TURKISTON O'LKASIDA AHOI SALOMATLIGINI SAQLASH TIZIMI

Oydinoy Ochilova

PhD, dotsent.

Osiyo texnologiyalar universiteti

O'zbekiston

МАҚОЛА HAQIDA

Kalit so'zlar: Turkiston, aholi salomatligi, sog'liqni saqlash tizimi, tibbiy infratuzilma, sog'liqni saqlash xizmatlari, davolash sifati, sog'liqni saqlash strategiyalari.

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola, Turkiston o'lkasida aholi salomatligini saqlash tizimining hozirgi holati va uning rivojlanish istiqbollari haqida tahliliy ma'lumot beradi. Maqolada, shuningdek, mahalliy aholining sog'liqni saqlash xizmatlariga kirish imkoniyatlari, tibbiy infratuzilma, va davolash sifati kabi asosiy omillar ko'rib chiqiladi.

СИСТЕМА ЗДРАВООХРАНЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ В СТРАНЕ ТУРЦИЯ

Ойдиной Очиловой

PhD, доцент

Азиатский технологический университет

Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: здравоохранение,

Туркестан, система

Аннотация: В данной научной статье представлена аналитическая информация о

здравоохранения, медицинская инфраструктура, услуги здравоохранения, качество лечения, стратегии здравоохранения.

современном состоянии системы здравоохранения Туркестана и перспективах ее развития. В статье также рассматриваются такие ключевые факторы, как доступ местного населения к медицинским услугам, медицинской инфраструктуре и качеству лечения.

Kirish. O‘zbek tibbiyot maktabi kishilik tarixidagi eng eski maktablardan biri sanalishi yaxshi ma’lum. Qadim Turon hududida insonlar kasallikni davolash va kerakli dorilarni tayyorlash bilan azaldan shug‘ullanib kelgan. Jumladan, miloddan avvalgi 7–6-yuzyilliklarga oid Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumanidan topilgan dorigarlik buyumlari[1], qadimgi Pop shahri yaqinidan topilgan kuydirilgan ayol jasadi[2] hamda 8-yuzyillikka oid Poykanddan topilgan dori idishlar[3] milliy tibbiyot ildizlarini ko‘rsatib beradi.

Bundan tashqari, qirrali va tig‘li qattiq mehnat buyumlarning paydo bo‘lishi ham amaliy tibbiyotning rivojlanish belgisi edi, deb hisoblash mumkin. Ya’ni, qadimdan odamlar tug‘ruq bilan bog‘liq jarayonlarda yordam berish, tanadan yot narsalarni olib tashlash, tana a’zolarini tashqi ta’sir natijasida yiringlashi kabilarni bartaraf etishda pishiq yoki o‘tkir tig‘li anjomlarga ehtiyoj sezgan. Bunday tajribalar qadim Turonda amaliy tibning shakllanishiga xizmat qilgan bo‘lsa, keyinchalik empirik bilimlarning to‘planib borishi natijasida davolash bilan shug‘ullanuvchi kasb egalari – tabiblarni vujudga keltirgan. Natijada, ushbu kasbni egallamoqchi bo‘lganlarga ruxsatnomasi berish va faoliyatini tartibga solishga doir qoidalar yaratildi. Jumladan, “Avesto”ning “Vendidod” qismida bo‘lajak tabiblarni imtihon qilish usullari, hakimlarning o‘zaro hamkorligi, davolash jarayonlari va xizmat haqi(*narxi*), dorivor giyohlar haqida[4] so‘z yuritilgani, o‘sha davrda davolash uch yo‘nalish – o‘z ilmi kuchi, tig‘ hamda turli-tuman giyohlardan tayyorlangan malham va sharbatlar negizida amalga oshirilgani[5] fikrimizni tasdiqlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ma’lumki, “Avesto” ta’limotida inson sog‘lig‘i atrof-muhit bilan bog‘lanadi. Kishilar uni ifloslantirmasliklariga qattiq qaralgan, bu boradagi tartibni buzganlarga esa katta jarimalar solingan. Suv, havo, tuproq va olovga munosabat hududiy xususiyatlardan kelib chiqib, insonning mehnat faoliyati hamda salomatligi tabiat muvozanati bilan chambarchas bog‘liq, deb sanalib, ajdodlarimiz tibbiy qarashlarini ham shu asosga qurbanlar. Endilikda ham saqlanib qolgan qarash va an‘analar – suvhamda tuproqni e’zozlash (*suvga axlat tashlamaslik*, *ekin maydonlariga kasallikdan o‘lgan hayvonlarni ko‘mmaslik*), havoni ifloslantiradigan narsalarni yoqmaslik, ba’zi hollarda olovning sirli kuchiga ishonch kabilarning ildizlari o‘sha qadim zamonalarga borib taqaladi.

Yurtimizga islom dinining kirib kelishi va o‘rnashishi amaldagi tibbiy bilimlarning falsafiy jihatlariga o‘z ta’sirini o‘tkazishi tabiiy edi. Masalan, “طب النبي” (“Payg‘ambar tabobati”) risolasi va tibga oid hadislarda insonning ma’naviy barkamolligi evaziga jismoniy sog‘lom hayot kechirish

tadbirlariga urg‘u beriladi[6]. Bir so‘z bilan ifodalaganda, islom dini ham Turonda oldindan amalda bo‘lgan shaxsiy va ommaviy tozalikka oid yondashuvlarni ilohiy qarashlar hamda qat’iy qoidalari asosida mustahkamlagan. Buyuk o‘zbek hakimi Abu Ali Ibn Sino (980 – 1037) ajdodlarmizning salomatlik madaniyatga oid qarashlarini amaliy tibbiyot qoidalari asosida yangi bosqichga ko‘tardi. O‘z davrida yaratilgan ushbu tibbiyot falsafasi va allomaning “Tib qonunlari”) asari hududimizga G‘arbning yangi tajribalar asosida yaratilgan tibbiyot yutuqlari kirib kelgunga qadarqo‘llab kelindi.

Tahlil va natijalar. Har bir shaharda kasalxona bo‘lishi shartligini belgilab qo‘ygan Amir Temuresa tibbiy tizimini davlat xazinasidan moliyalashtirishga urg‘u qaratgan hamda sohada faoliyat yurituvchi mutaxassislarning davlat siyosatida tutgan o‘rni masalalariga e’tibor qaratgan[7]. Temuriylar va undan keyingi davrlarda hukmdorlaryoki hukumatning tibbiy sohaga bo‘lgan e’tibori hamda qarashlari natijasida milliy tibbiyot va uni isloh qilish masalasi yangi bosqichga ko‘tarilgan. Jumladan, Xiva xoni Abulg‘oziy Bahodirxon (1644–1663) xalq salomatligi va hududga xos kasallikkarni bartaraf etish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etayotganligini hisobgaolib, tib ilmiga oid “مَنَاعُ الْأَنْسَانِ” (“Inson uchun foydali dorilar”)[8] nomli asar yaratgan. Tibbiy qarashlar rivoji va xalq salomatligi borasidagi masalalar Buxoroda Subhonqulixon (1681–1702) davrida ham yangi bosqichga ko‘tarildi. Jumladan, uning davrida tashkil qilingan “Dorush-shifo” shifoxonasida to ruslar Turkistonni zabit etguniga qadar tabiblarni tayyorlovchi asosiy muassasa bo‘lgan. Shuningdek, Subhonqulixonning o‘zi ham tib ilmiga qiziqqan hamda “احب الطبع صحياني” (“Subhonqulining tabobatni jonlantirishi”)[9] nomli asar yozgan. Subhonqulixon o‘z davlatida aholini qiyayotgan kasalliklar hamda ularning yechimi borasida choralar ko‘rganligi tarixdan ma’lum. Afsuski, temuriylar davridan keyin ilg‘or tibbiy qarashlarni amaliyotga joriy etish va sohani isloh qilish kabi ishlar susaydi. Lekin, ushbu davrda Yevropaning rivojlangan davlatlarida tibbiyotning yangicha ko‘rinishlari va usullari vujudga kela boshladi.

18-yuzyillikka kelib, sohada amalga oshirilgan izlanishlar natijasida amaliy tibbiyot yangi bosqichga ko‘tarildi. Ekologik omil va insonning atrof-muhitgabo‘lgan munosabati natijasida tibbiyotga hali noma’lum bo‘lgan kasallik hamda epidemiyalarning avj olishi va unga qarshi kurashish masalasi yangi davr tibbiyotining dolzarb yo‘nalishga aylandi. Turkiston mintaqasida ham ichki va tashqi omillar ta’sirida yuqumli kasalliklar yoki shifosi noma’lum xastaliklarning vujudga kelishi oqibatida ushbu hududda ham yangi amaliy tibbiy faoliyatga ehtiyojpaydo bo‘ldi. Turkistonda xalq salomatligi va tibbiyot mutaxassislarini tayyorlash, ularni o‘qitish hamda sog‘liqni saqlash sohasini nazorat qilish masalalari yuzyilliklar davomida shakllangan an’analar bo‘yicha amalga oshirilgan.

Mintaqani Rossiya imperiyasi bosib olgunga qadar sog‘liqni saqlash sohasi davlat (*amirlilik va xonliklar*) tomonidan nazorat qilingan. Shunday bo‘lsa-da, aksariyat hollarda davolash jarayoni

va tabiblarni bemorlar bilan muloqoti mustaqil/xususiy/erkin holda amalga oshirilgan. An'anaviy davolash muassasalari.

Turkistonda qadimdan asosiy davolash muassasalari davlat tomonidan qurilgan shifoxonalar bo'lib, ularning faoliyati vaqf mulklari hisobidan moliyalashtirilgan. Turkistonni Rossiya imperiyasi bosib olguniga qadar xalqning salomatligi va davolanishi bevosita hokimiyat hamda davlat rahbari zimmasida edi. Mazkur holat davlat boshqaruvining bir bo'lagi bo'lib, manbalarda ham "...bemorlar haqida g'amxo'rlik qilish bu islom hokimlari, saltanat egalari va mamlakatni idora etuvchilarining burchidir", – deb yozilgan[10]. Bundan ko'rindan, xalq salomatligini asrash va ularni turli sog'liqqa putur yetkazuvchi xavfdan muhofaza qilish davlatning vazifalaridan biri bo'lgan. Chunki, o'rta yuzyilliklarda qo'l mehnatiga asoslangan ishlab chiqarish tizimida davlatning ravnaqi aholi soni va salomatligiga bog'liq bo'lsa, so'nggi o'rta asrlarga kelib davlatning ishchi kuchi hamda harbiy quvvatiga bo'lgan talab ham oshadi. Bu kabi omillar davlatning aholi salomatligi masalasini doim yodda saqlashiga sabab bo'ldi.

Turkistonda davolash muassasalarini shartli ravishda uchta guruhga ajratish mumkin: shifoxonalar, hammomlar va istisno tariqsida tabiblarning uylari, davolash nuqtalarini kiritish mumkin.

Xulosa va takliflar. Qadim davrlardan Turkistonda jamoat kasalxonalari bo'lgan. 2700 yil oldin zardushtiy jamoalarida bemorlar uchun alohida shifoxona bo'lganligi yozma manbalarda qayd etilgan. Jumladan, "Avesto"da tilga olingan otashkadalar huzurida bemorlar davolanadigan markazlar faoliyat yuritgan. O'rta asrlarga kelganda maxsus kasalxona qurish an'anaga kirdi hamda hokimlar va davlat rahbarlari turli ilmiy markazlar hamda yodgorliklar qurish barobarida o'z hududidashifoxonalar barpo etishga ham katta e'tibor qaratgan. Masalan, vaqf hujjatlarida qayd etilishicha, 1046–1068-yillarda Samarqandda hokimlik qilgan Ibrohim Tamg'ochxon 1066-yilning o'rtalarida shaharning Rivdod ko'chasidagi dahada shifoxona (*Dorul-shafaqa*) qurdirgan[12].

Foydalanimanligi adabiyotlar ro'yxati:

1. Асадов Д. ва бошқ. Қадимий Термиз тиббиёти // О'ТЖ. – 2004. – №1–2. Б. 230
2. Қодиров А. Ўрта Осиёда медицинанинг пайдо бўлиши. – Тошкент: Ибн Сино, 1990. 45-бет.
3. Мухамеджанов А., Г. Семенов. Химическая лаборатория VIII века в Пайкенде // Общественные науки в Узбекистане. – 1984. – №3. – С. 35–39.
4. Авесто. Тарихий адабий ёдгорлик / Асқар Маҳкам таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2015. 213–323-бетлар.
5. Ҳомидий X., Дўсчанов Б. "Авесто" ва тиббиёт. – Тошкент: Абу Али ибн Сино, 2001. 22-бет

6. Ибн Кайим Аль-Джаузи. Медицина Пророка. Перевод с арабского Д. Кадыров.
– Москва: САД, 2005. –174-стр.
7. Темур тузуклари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. 81, 125-бетлар.
8. Abulg'ozixon ibn Arab Muhammadxon. Manofi' ul-inson. Sharqshunoslik instituti Sharq qo'lyozmalarijamg'armasi. 4107-raqamlı qo'lyozma.
9. Turkic medical treatise from Islamic Central Asia: A critical edition of a seventeenth-century Chagatay work by Subhān Qulī Khan. – Boston: Brill, 2015. 417-pg.
10. Рашид ад-Дин. Сборник летописей / Пер. с персидского О. Смирновой. Т.1. Кн. 2. – Москва: АН СССР, 1952. 316-с
11. Шамсиддин К. и др. Два вакфа Тамгач Бугра-хана в Самарканде. LAP LAMBERT Academic Publishing, 2012. 35-стр.